




*(2021- yil yanvar-oktabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI







Navoiy iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **995,9** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **101,5** % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	980,9	995,9	101,5	x
Eksport 	363,3	420,5	115,7	100,0
 <i>tovarlar</i>	357,9	409,2	114,3	97,3
 <i>xizmatlar</i>	5,4	11,3	2,1 m.	2,7
Import 	617,6	575,4	93,2	100,0
 <i>tovarlar</i>	589,0	544,9	92,5	94,7
 <i>xizmatlar</i>	28,6	30,5	106,2	5,3
Saldo 	- 254,3	- 154,9	X	x

Ma'lumot uchun: Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati, jahonning **69** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Kanada (**17,3 %**), Xitoy Xalq Respublikasida (**17,0 %**), Rossiya Federatsiyasida (**16,9 %**), AQShda (**9,3 %**) va Litvada (**7,7 %**) qayd etilgan.

NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Kanada	171,8	166,7	5,1	17,3
Xitoy Xalq Respublikasi	169,7	91,5	78,2	17,0
Rossiya Federatsiyasi	168,6	47,7	120,9	16,9
AQSh	92,8	0,7	92,1	9,3
Litva	77,0	12,7	64,3	7,7
Turkiya	66,2	34,7	31,5	6,6
Qozog'iston	64,0	12,7	51,3	6,4
Koreya Respublikasi	21,3	0,1	21,2	2,1
Chexiya Respublikasi	20,6	0,3	20,3	2,1
Turkmaniston	20,5	18,4	2,1	2,1

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Turkmaniston bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Turkmaniston, Afg'oniston va Qirg'iz Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Litva, Turkiya, Koreya Respublikasi va Chexiya Respublikasi hissasiga to'g'ri kelgan.

NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Kanada	0,7	102,6	171,8
<i>Eksport</i>	0,6	101,1	166,7
<i>Import</i>	0,1	1,5	5,1
Xitoy Xalq Respublikasi	261,0	165,2	169,7
<i>Eksport</i>	62,0	53,5	91,5
<i>Import</i>	199,0	111,7	78,2
Rossiya Federatsiyasi	180,9	133,6	168,6
<i>Eksport</i>	36,4	28,0	47,7
<i>Import</i>	144,5	105,6	120,9
AQSH	53,2	46,3	92,8
<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,7
<i>Import</i>	53,1	46,2	92,1
Litva	13,0	78,7	77,0
<i>Eksport</i>	3,7	3,3	12,7
<i>Import</i>	9,3	75,4	64,3
Turkiya	99,3	55,3	66,2
<i>Eksport</i>	18,8	25,3	34,7
<i>Import</i>	80,5	30,0	31,5
Qozog'iston	65,7	52,8	64,0
<i>Eksport</i>	7,0	6,3	12,7
<i>Import</i>	58,7	46,5	51,3
Koreya Respublikasi	94,9	45,6	21,3
<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,1
<i>Import</i>	94,8	45,5	21,2
Chexiya Respublikasi	27,8	8,4	20,6
<i>Eksport</i>	1,5	0,1	0,3
<i>Import</i>	26,3	8,3	20,3
Turkmaniston	11,9	15,7	20,5
<i>Eksport</i>	3,5	15,1	18,4
<i>Import</i>	8,4	0,6	2,1

**NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Yaponiya	150,0	28,5	17,3
<i>Eksport</i>	7,1	0,2	-
<i>Import</i>	142,9	28,3	17,3
Ukraina	3,0	13,1	15,6
<i>Eksport</i>	1,5	1,9	1,6
<i>Import</i>	1,5	11,2	14,0
Germaniya	171,0	47,6	12,0
<i>Eksport</i>	0,6	0,2	-
<i>Import</i>	170,4	47,4	12,0
Eron Islom Respublikasi	4,5	3,7	8,7
<i>Eksport</i>	2,3	-	1,9
<i>Import</i>	2,2	3,7	6,8
Afg'oniston	1,4	1,3	7,5
<i>Eksport</i>	1,4	1,3	7,5
<i>Import</i>	-	-	-
Italiya	91,9	10,2	6,6
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	91,9	10,2	6,6
Qirg'iz Respublikasi	18,8	36,8	6,4
<i>Eksport</i>	18,5	36,4	6,0
<i>Import</i>	0,3	0,4	0,4
Belarus Respublikasi	78,2	0,7	6,3
<i>Eksport</i>	0,4	0,4	1,2
<i>Import</i>	77,8	0,3	5,1
Singapur	1,7	5,0	5,9
<i>Eksport</i>	0,6	4,8	5,9
<i>Import</i>	1,1	0,2	-
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	7,4	4,6	4,1
<i>Eksport</i>	-	0,6	-
<i>Import</i>	7,4	4,0	4,1

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-oktabr)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	995 825,1	101,5
Navoiy sh.	634 892,3	103,0
Zarafshon sh.	11 893,0	25,3
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	233 020,1	116,6
Konimex	1 825,9	43,5
Qiziltepa	19 845,6	54,4
Navbahor	24 589,5	89,9
Nurota	9 622,6	104,6
Tomdi	4 250,8	2,8 b.
Uchquduq	4 613,8	161,6
Xatirchi	41 697,0	2,8 b.
Bo'linmaydigan hajm	9 574,5	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

Navoiy sh. – 634 892,3

Karmana – 233 020,1

Xatirchi – 41 697,0

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

Uchquduq – 4 613,8

Tomdi – 4 250,8

Konimex – 1 825,9


Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **63,8 %** ulush bilan **634 892,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,2 %** ulush bilan **1 825,9** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **28,5 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar- oktabr oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan **98,0 %** ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **71,5 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI

(2021- yil yanvar-oktabr)



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **420,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,7** % ni tashkil etdi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**61,9** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**20,4** %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**6,4** %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2020	2021		
Jami eksport	363,3	420,5	115,7	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12,4	21,7	174,9	5,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	26,3	27,1	103,1	6,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,4	2,1	87,4	0,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	250,3	260,5	104,0	61,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	49,5	85,7	173,0	20,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2,8	1,0	37,3	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	14,2	11,1	78,4	2,7
Xizmatlar	5,4	11,3	2,1 b.	2,7

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2020- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning mos davriga nisbatan xizmatlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari mahsulotlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)




Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-oktabr oylarida eksport hajmi **420,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI *(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlariga **90,2** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **21,5** % ini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2021- yil yanvar-oktabr, % da)*



2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining **39,7** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**21,8** %), Rossiya Federatsiyasi (**11,3** %), Turkiya (**8,2** %), Turkmaniston (**4,4** %), Litva (**3,0** %) va Qozog'iston (**3,0** %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi **91,4** % ni tashkil etmoqda.

**NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI
VA O'SISH SUR'ATLARI** *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2020	2021		
Kanada	101 158,0	166 743,9	164,8	1
Xitoy Xalq Respublikasi	53 503,4	91 488,0	171,0	2
Rossiya Federatsiyasi	27 997,1	47 672,5	170,3	3
Turkiya	25 259,2	34 671,1	137,3	4
Turkmaniston	15 142,7	18 351,2	121,2	5
Litva	3 295,0	12 753,4	3,9 b.	6
Qozog'iston	6 325,7	12 723,2	2,0 b.	7
Afg'oniston	1 337,5	7 521,2	5,6 b.	8
Qirg'iz Respublikasi	36 359,3	6 005,2	16,5	9
Singapur	4 807,0	5 933,4	123,4	10
Pokiston	401,4	3 601,4	9,0 b.	11
Tojikiston	852,3	2 428,5	2,8 b.	12
Eron Islom Respublikasi	-	1 926,4	-	13
BAA	1 251,7	1 708,8	136,5	14
Ukraina	1 937,8	1 619,2	83,6	15
Belarus Respublikasi	423,6	1 262,5	3,0 b.	16
AQSH	92,2	671,9	7,3 b.	17
Polsha	656,5	585,9	89,2	18
Vetnam	-	480,1	-	19
Chexiya Respublikasi	67,3	289,4	4,3 b.	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **38** tani tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2021- yil yanvar-oktabr)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	420 453,2	115,7
Navoiy sh.	307 136,4	112,1
Zarafshon sh.	3 389,8	129,7
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	38 884,8	137,7
Konimex	218,2	21,6
Qiziltepa	11 454,5	46,6
Navbahor	17 680,1	113,2
Nurota	3 818,3	189,8
Tomdi	812,9	150,9
Uchquduq	1 352,6	123,1
Xatirchi	34 061,6	4,1 b.
Bo'linmaydigan hajm	1 644,0	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

Navoiy sh. – 307 136,4

Karmana – 38 884,8

Xatirchi – 34 061,6

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

Uchquduq – 1 352,6

Tomdi – 812,9

Konimex – 218,2



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **73,0** % ulush bilan **307 136,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,1** % ulush bilan **218,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, % da)

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,4	3,4	5,2
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	5,6	7,2	6,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,2	0,7	0,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	64,6	68,9	61,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,4	13,6	20,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	3,3	0,8	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	0,4	3,9	2,7
Xizmatlar	3,1	1,5	2,7

2021- yil yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi **7,0** punktga oshib, **20,4** % ni, turli xil tayyor buyumlar **2,3** punktga oshib, **2,7** % ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI


(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)

XSST tarkibi	Kanada		Xitoy Xalq Respublikasi		Rossiya Federatsiyasi		Turkiya	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	101,2	166,7	53,5	91,5	28,0	47,7	25,3	34,7
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	0,8	1,3	3,0	1,3	0,1	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	1,1	0,6	11,9	19,2	0,5	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	0,2	-	0,3	0,5	1,7	1,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	100,7	165,7	44,2	76,7	0,1	-	9,7	0,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	0,5	1,0	4,9	12,8	10,8	13,0	10,8	27,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	-	-	2,3	0,1	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	1,0	8,6	0,1	-
Xizmatlar	-	-	-	-	0,9	5,1	2,4	3,7

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



- **Safarlar (Turizm)**
- **Transport xizmatlari**
- **Moliyaviy xizmatlar**
- **Boshqa xizmatlar**


Xizmatlar eksporti hajmi **11,3** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **2,7** % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **2,1** barobarga oshdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**90,0** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**5,9** %), moliyaviy xizmatlar (**3,7** %), va boshqa xizmatlar (**0,4** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2021- yil yanvar-oktabr, ming AQSh dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **13 340,8** ming AQSh dollar qiymatli **18 397,7** tonnadan ortiq meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2020- yilning mos davriga nisbatan **138,3** % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida **3,2** % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Xatirchi tumanida **4 579,2** ming AQSh dollarini, Qiziltepa tumanida **3 853,3** ming AQSh dollarini, Karmana tumanida **2 223,7** ming AQSh dollarini, Navbahor tumanida **1 066,4** ming AQSh dollarini va Navoiy shahrida **504,4** ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-oktabr)



Davlatlar	2020- yil			2021- yil		
	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi*, % da	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi*, % da
Qozog'iston	1 884,9	965,5	10,0	10 727,8	4 262,4	32,0
Pokiston	218,0	386,6	4,0	934,6	3 179,5	23,8
Eron Islom Respublikasi	-	-	-	1 492,0	1 504,4	11,3
Xitoy Xalq Respublikasi	819,2	833,8	8,6	1 155,1	1 245,4	9,3
Belarus Respublikasi	732,2	376,8	3,9	1 179,0	768,0	5,8
Afg'oniston	546,7	138,9	1,4	926,3	755,2	5,7
Qirg'iz Respublikasi	1 498,9	3 625,0	37,6	608,1	715,1	5,4
Rossiya Federatsiyasi	4 127,2	2 721,8	28,2	425,4	442,7	3,3
Iroq	280,1	212,6	2,2	206,9	215,0	1,6
Turkmaniston	61,7	62,3	0,6	150,9	94,0	0,7
Estoniya	108,0	20,2	0,2	232,0	42,9	0,3
Latviya	173,4	23,3	0,2	220,8	36,2	0,3
Ukraina	59,6	32,7	0,3	51,9	31,6	0,2
BAA	12,4	43,6	0,5	22,2	27,6	0,2
Gruziya	107,0	117,5	1,2	44,0	17,6	0,1
Litva	-	-	-	20,7	3,2	0,02
Boshqa davlatlar	88,6	83,8	1,1	-	-	-

* qiymat ifodasidan

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (**32,0** %), Pokiston (**23,8** %), Eron Islom Respublikasi (**11,3** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**9,3** %) va Belarus Respublikasi (**5,8** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

(2021- yil yanvar-oktabr)




2021- yil yanvar-oktabr oylarida import hajmi **575,4** mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan **93,2** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**54,9** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**16,6** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**11,6** %) ga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi **544,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **30,5** mln. AQSh dollariga yetdi.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2020	2021		
Jami import	617,6	575,4	93,2	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,3	20,2	2,4 b.	3,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,0	5,3	133,0	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,4	1,6	3,5 b.	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,3	4,7 b.	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	73,2	66,9	91,4	11,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	83,6	95,5	114,2	16,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	386,6	316,1	81,8	54,9
Turli xil tayyor buyumlar	32,7	39,0	119,3	6,8
Xizmatlar	28,7	30,5	106,2	5,3

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**54,9 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**16,6 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**11,6 %**), turli xil tayyor buyumlar (**6,8 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2020- yilning mos davriga nisbatan hayvonlar va o'simliklar moylari (**4,7 barobar**), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**3,5 b.**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**2,4 b.**), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**33,0 %**), turli xil tayyor buyumlar (**19,3 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**14,2 %**), xizmatlar (**6,2 %**) o'sgan.




NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)



Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-oktabr oylarida import hajmi **575,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI *(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **33,7** va **66,3** % ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva, Qozog'iston, Turkiya va Koreya davlatlari) jami importning **79,9** % ini tashkil qiladi, bu **459,5** mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2021-yil yanvar-oktabr, % da)*



NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2020	2021		
Rossiya Federatsiyasi	105 579,7	120 932,4	114,5	1
AQSH	46 182,5	92 125,0	199,5	2
Xitoy Xalq Respublikasi	111 698,8	78 175,3	70,0	3
Litva	75 426,1	64 277,8	85,2	4
Qozog'iston	46 463,6	51 295,3	110,4	5
Turkiya	30 053,6	31 502,1	104,8	6
Koreya Respublikasi	45 459,6	21 148,2	46,5	7
Chexiya Respublikasi	8 379,0	20 271,5	2,4 b.	8
Yaponiya	28 327,2	17 324,8	61,2	9
Ukraina	11 184,0	13 971,3	124,9	10
Germaniya	47 433,0	12 009,9	25,3	11
Eron Islom Respublikasi	3 684,3	6 763,9	183,6	12
Italiya	10 232,7	6 609,9	64,6	13
Kanada	1 473,1	5 090,7	3,5 b.	14
Belarus Respublikasi	333,5	5 073,0	15,2 b.	15
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	4 039,6	4 146,0	102,6	16
Estoniya	6 991,3	3 377,9	48,3	17
Fransiya	1 262,9	3 065,9	2,4 b.	18
Hindiston	3 524,1	2 531,0	71,8	19
Indoneziya	3 746,4	2 166,6	57,8	20

2021- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo'yicha **63** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2021- yil yanvar-oktabr)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	575 371,9	93,2
Navoiy sh.	327 755,9	95,6
Zarafshon sh.	8 503,2	19,1
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	194 135,3	113,1
Konimex	1 607,7	50,4
Qiziltepa	8 391,1	70,2
Navbahor	6 909,4	58,8
Nurota	5 804,3	80,8
Tomdi	3 437,9	3,5 b.
Uchquduq	3 261,2	185,8
Xatirchi	7 635,4	116,8
Bo'linmaydigan hajm	7 930,5	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

Navoiy sh. – 327 755,9

Karmana – 194 135,3

Zarafshon sh. – 8 503,2

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

Tomdi – 3 437,9

Uchquduq – 3 261,2

Konimex – 1 607,7

Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **57,0** % ulush bilan **327 755,9** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Konimex tumani **0,3** % ulush bilan **1 607,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, % da)


XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,9	1,4	3,5
Ichimliklar va tamaki	0,2	-	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,4	0,6	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,1	0,3
Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar	-	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,7	11,9	11,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	14,3	13,5	16,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	69,3	62,6	54,9
Turli xil tayyor buyumlar	6,4	5,3	6,8
Xizmatlar	1,3	4,6	5,3

2021- yil yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarida 2020- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **13,5 %** dan **16,6 %** gacha, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda importining ulushi **1,4 %** dan **3,5 %** gacha, turli xil tayyor buyumlarda esa **5,3 %** dan **6,8 %** gacha o'sdi.

2021- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **30,5** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **5,3** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **106,2** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi qurilish xizmatlari (**64,6** %), transport xizmatlari (**20,4** %) va boshqa xizmatlar (**15,0** %) dan iborat bo'ldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat va

savdo statistikasi bo'limi

Tel.: (99879) 223-50-43